



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

# PEDIATR

№ 17 (938)  
14-noyabr, dushanba  
2022-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI  
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО  
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil  
martdan chiga  
boshlagan

## O'TMISH, BUGUN, KELAJAK TIMSOLI

**B. T. DAMINOV,  
ToshPTI rektori,  
Xalq deputatlari Toshkent  
shahar kengashi deputati**

Bugungi kunga kelib bayroq har bir mamlakatning suvereniteti va mustaqilligini ifodalovchi davlat ramzlaridan biri hisoblanadi. Aslida, davlat ramzları hamisha ulug‘ va muqaddas sanaladi. Ular xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagini o‘zida mujassam etgan Vatanning yorqin namunasidir. Jumladan, O‘zbekiston bayrog‘i ham. U yer sayyorasida mustaqil O‘zbekiston davlati borligini anglatadi va o‘zida milliy-madaniy an'analarimizni mujassamlashtiradi. Bu yil mustaqil O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganligiga 31 yil to‘ladi.

O‘zbekistonning davlat ramzları xalqimizning shon-sharafi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o‘zida mujassam etib, shu yurda yashovchi har bir fuqaroga g‘urur, faxr va iftixonor bag‘ishlaydi. Respublikamiz fuqarolari uchun Davlat bayrog‘i ma’naviyatning eng muhim timsolidir. Shu bois, har gal bayrog‘imizga nazar solganimizda, har birimiz ruhan jo‘sinqinlikni, azm-u shijoatimiz oshganini, qalbimizda g‘urur va buyuk istiqbolga ishonch tuyg‘usini, vatanparvarli-

kni his etamiz. Chunki biz uchun davlatimiz bayrog‘i – o‘tmish, bugun va kelajagimizning yorqin timsolidir. Yuksak did va mahorat bilan ishlangan, o‘zida juda katta ma’no-mazmunni mujassam etgan, o‘zida butun O‘zbekiston ahlining asriy orzu-istiklarini, g‘ayrati va shijoatini, xalqimizga xos mentalitetni, ajdodlar yodiga hurmat va millat g‘ururini mujassam etgan bayrog‘imiz sayyoramizdagи barcha mamlakatlarning davlat ramzları orasida alohida hurmat va ehtiromga sazovordir.

Bugun milliy bayrog‘imiz davlat idora va muassasalari, o‘quv yurtlari, O‘zbekiston a’zo bo‘lgan xalqaro tashkilotlar, chet ellardagi elchixonha va doimiy va kolatxonalarimiz peshtoqida hilpirab turibdi. Jahon millatlari o‘zbek degan xalq haqida gapirganda yoki tasavvur izlaganda ko‘z oldilari ga eng birinchi bo‘lib Davlatimiz bayrog‘i kelishi, shubhasiz.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek, O‘zbekistonda yashaydigan boshqa shaxslar bayrog‘imizni hurmat qilishlari shartligi qonunda belgilab qo‘ylgan. Zero, unda ruhiyatimiz, g‘urur va iftixonimiz, Vatanimiz va xalqimizga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbatimiz, kelajakka ishonchimiz mujassam.

Turli bayram tantanalarida, mamlakatimiz a’zolari qatna-

shayotgan xalqaro miqyosdagи siyosi, madaniy-ma’rifiy tadbirlarda, nufuzli sport musobaqlarida bayrog‘imiz Vatanimizning sha’ni, xalqimizning g‘ururi bo‘lib bo‘y ko‘rsatadi. Xalqaro sport bellashuvlarida g‘alaba qozongan sportchilarimiz sharafiga yurtimiz bayrog‘i baland ko‘tarilib, madhiyamiz yangragan lahzada har birimiz cheksiz hayajonga tushamiz, hech kimdan kam emasligimizdan faxr tuyamiz.

Davlatimiz bayrog‘i tinch va osoyishta, ozod hamda erkin hayotimiz, yorug‘ kelajagimizga bo‘lgan ishonchimiz namunasi ekan, davlat ramzlarining muqaddasligini, ular bizga yurt manfaati har nedan ustunligini anglatib, eslatib turishini har birimiz, ayniqsa, yosh avlod yodda tutishi kerak. O‘zbekiston farzandlari yer sharning qaysi nuqtasida bo‘lmasin, qanday natijalarga erishmasin, Vatan bayrog‘i ularga hamrohlik qiladi. Jumladan, institutimiz talabari turli xalqaro olimpiadalarida va sport musobaqlarida g‘olib chiqishlarida ham bayrog‘imiz ko‘kka yuksaladi. U har birimizning yuragimizga o‘rnatilgan. Bayroq – o‘tmish nigohi, bugungi kun shijoati, kelajak mas’uliyati timsoli, hurlik, ezgulik, tinchlik ramzidir. Yuragimizdagи va pesh-toqlardagi vatanimiz bayrog‘i abadiy hilpirasin!

## EL E'ZOZIDAGI AYOL



Ko‘pincha o‘zimizga “Baxt nima?” deb savol beramiz. Keyin unga har birimiz bilganimizcha javob topishga harakat qilamiz. Institutimizning bolalar yuqumli kasalliklari, kafedrasi dotsenti Malika Nasirovna bu savolga, baxt bu doimo atrofingdagilarga kerak bo‘lish, deb javob beradi. Chunki bu inson o‘zidan ko‘ra atrofdagilarning tashvishi bilan yashashni afzal ko‘radi. Kafedra bazasi Olmazordagi 4-bo‘llalar yuqumli kasalliklari shifoxonasida joylashgan. Malika opa 2002-yildan to hozirgi kungacha rahbar bo‘lib faoliyat ko‘rsatayotgan ToshPTI ichki nazorat bo‘limi esa institutning asosiy binosi – Yunusobodda faoliyat ko‘rsatadi. Malika Nasirovna Daminova har kuni ertalabdan tushgacha kafedraga, so‘ng institutga shoshadi. U yerda ham, bu yerda ham, shuningdek, oilasida ham bajaradigan yumushlari, uning yordamini kutuvchilar juda ko‘p. Opaning yuzidan tabassum arimaydi. Nozik masalalar yuzasidan nazorat o‘tkazayotganda ham jilmayib turadi. Har bir kafedraning o‘nlab jiddlariga jo bo‘lgan hujjatlarini ko‘zdan kechiradi. Kamchiliklарini shu ishga mas’ul xodimlarga to‘g‘rilash lozimligini uqtiradi.

Malika Nasirovnani goh kompyuter xonasida hisobot tayyorlab o‘tirgани, goh kafedraning uslubiy qo‘llanmlarini yozayotgan holda ko‘rasiz.

Talabalarga Malika opaning, ayniqsa, xushmuomalaligi, bilim berish uslubi yoqadi.

U har bir kasallikning belgilari, kechish jarayonini obrazli qilib tu-shuntiradi.

Institut – katta dargoh, katta jamoa. Malika Nasirovna mana shu oliyohning eng fidoyi, ko‘zga ko‘ringan xodimlaridan biri. U o‘z faoliyati bilan barchani ogohlilikka chorlaydi. Ogohlilik esa, o‘z navbatida, noxush voqealarning oldini oladi.

Malika Nasirovaning o‘zidan oлган ma’lumotlar bilan maqolani davom ettiraman.

Malika Daminovaga qarab uning hayot qiyinchiliklарини ko‘rgan ayol deyish mumkin. Opaning mayin kulib turishlari, chehrasi sizga doim taskin beradi. Ammo beshafqat taqdir bu ayolni chetlab o‘tmadi. Turmush o‘rtog‘i, taniqli shifokor, O‘zbekiston Sog‘liqni Saqlash vazirining sobiq o‘rinbosari Marat Daminov 1992-yilda avtohalokatga uchraganda u 45 yoshda edi. Hozirgi kunda ular istiqomat qilayotgan mahalla ko‘chasi uning turmush o‘rtog‘i nomi bilan atladi. Bolalarni oyoqqa turg‘azib, ularga nasihat berar ekan, Malika opa ota-onalarining nomiga loyiq farzand bo‘lishlari lozimligini hamisha uqtiradi. Ota va ona tarbiyasini olib voyaga yetgan farzandlar uning yuzini yerga qaratishmadid. O‘g‘li Ravshan xususiy firmada faoliyat yuritadi. Qizlari Hilola va Kamolalar ham tibbiyot sohasida mehnat qilishadi. Hilola Toshkent tibbiyot akademiyasining Nevrologiya, kafedrasi dotsenti. Kamola Toshkent stomatologiya instituti terapevtik yo‘nalishi dotsenti, 2022-yili doktorlikni himoya qildi.

Malika Nasirovna harbiylar oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Daminov Nosir Sadikovich harbiy shifokor, mayor bo‘lib, gospitalda faoliyat yuritardi. Ular Rossiyada yashashar, kichkintoy Malika yoshligida shifokor bo‘lishni orzu qilar, ammo o‘qituvchi bo‘lish ham unga juda yoqardi. Lekin bir vaqtida ham o‘qituvchi, ham shifokor bo‘lish

unga erishib bo‘lmas orzuday tuyular edi.

1965-yilda u Toshkent davlat tibbiyot institutiga o‘qishga kirdi, so‘ng internaturani tugatib, Toshkentdagi 5-poliklinikada faoliyat yuritdi. Klinik ordinaturani tugatgandan so‘ng esa, 1977-yildan to 1979-yilgacha Toshkent pediatriya tibbiyot institutida ishlab yuradi. Orada esa yuqumli kasalliklar shifoxonasida ham faoliyat yuritadi. Shifoxonada Malika Nasirovna doim reanimatsiya bo‘limida ishladi yoki navbatchilikda turdi. Bir kuni ularning bo‘limiga juda og‘ir holatdagi bolani olib kelishadi. U lo‘lilarning bolasi bo‘lib, butun boshli lo‘lillardan iborat olomon kasalxonona hovlisini tonggacha egallab olishadi. Ular bolalariga bir nima bo‘lsa, shifokorlarni sog‘ qo‘ymasligini aytib do‘q urishadi. Shifokor va hamshiralar tuni bilan mijja qoqmay, bolakay atrofida girdikapalak bo‘lishadi. Hayriyat, bemor bola o‘ziga kelib, tuzala boshlaydi. Malika Nasirovna poliklinikadagi ishiga juda qattiq mehr qo‘yib, faoliyat boshlagan. Ishga ketayotganda ham ba‘zan qo‘snilar, ba‘zan yo‘ldagi Malika Nasirovna tanigan yoki tanimagan insonlar bolalarini ko‘rib qo‘yishini iltimos qilar edilar. Va Malika Nasirovna ularga hech qachon rad javobini bermas edi. Xuddi shunday chaqiriqa borgan vaqtida yo‘l-yo‘lakay boshqa bemorlarni ham ko‘rar va atrofdagilarning mehri va muhabbatni, minnatdorchiligiga sazovor bo‘lar edi.

Malika Nasirovna ilk qabul qilgan mijozni haqida ham tabassum bilan eslaydi. Ularning birinchi mijozlarni qabul qilishi ajoyib bo‘lgan edi. Albatta, ilk mehnat faoliyatini boshlash ham haya-jonli, ham mas’uliyatlidir. Uning birinchi bemori bo‘lgan bolakayni butun oila a‘zolari olib kelishadi. Nafaqat yosh ota-onalar, balki buvi va buvasi keladi. Ular shunchaki shifokor ko‘rigiga guvoh bo‘lib qolmay, o‘zlarini bilan olib kirgan

yondaftarga uning har bir gapini yozib olishar edi.

Ammo Malika Nasirovna o‘zining mustahkam bilimiga asoslanib, qo‘ygan tashxis va belgilangan davo asosida bolakay tezda tuzaladi. 1990-yilda qahramonimiz nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Dissertatsiyaning mavzusi “Bolalar da VGVning klinik-genotipik xususiyatlari” edi. Uning ilmiy ishiga N.I.Pirogov nomli Moskva davlat tibbiyat instituti “Yuqumli kasalliklar” kafedrasi mudiri, tibbiyat fanlari doktori, professor V.F.Uchaykin va biologiya fanlari doktori O.T.Oqilov rahbarlik qilishadi.

1992-yildan boshlab ular Toshkent pediatriya tibbiyat instituti “Bolalar yuqumli kasalliklari” kafedrasida dotsent lavozimida faoliyat yurita boshlaydilar. Birinchi, ikkinchi amaliy mashg‘ulotlarga ham birinchi, ikkinchi ma’ruzalarga ham institutdagagi an'anaga muvofiq yangi ishga kelgan yoki yosh o‘qituvchilar darslarini ustozlar kuzatishardi. Ustozlar o‘qituvchilarning dars jayronida yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklariqa qarab tavsiyalar berar, ko‘rsatmalarga amal qilgan yosh ustozlarning keyingi darslar yana-da muvaffaqiyatli kechishi aniq edi. Ammo birinchi darsga kirishdan avval har bir yosh o‘qituvchi ustozlar darsini kuzatishi kerak bo‘lardi. Malika Nasirovna ham o‘z ustozlari Jamila Ibrogimovna Egamberdiyeva, Lola Umarovna Mahmudova, Alla Sergeyeva Xaratova, Raisa Aleksandrovna Morgunova kabi tajribali, bilimli ustozlarning biron ta darsini qoldirmaslikka harakat qilar, har bir ustozdan o‘ziga xos metodning biron qirrasini, darsdagi ma’lumotlarni taqdim etishning o‘ziga xosligini o‘rganar edi. Natijada Malika Nasirovnaning darslari qiziqarli o‘tar-di. Yuqori oqim talabalariga ma’ruza o‘qiganlarida ularning charchab qolayotganini sezsa boshlagach, turli hayotiy masalalar keltirishga o‘tar, zalda jonlanish va mavzuga bo‘lgan qiziqish kuchaya boshlardi.

Malika Nasirovna darslarining biriga o‘quv ishlari prorektori, tibbiyot fanlari doktori, professor Sulton Aminovich Dolimov to‘satdan kirib qoladilar. Sulton Aminovich darslarining sifatiga e’tibori niroyatda kuchli ekanligini hamma, shu jumladan, Malika Nasirovna ham bildilar. Shuning uchun ular darsda paydo bo‘lganlarida mas’uliyat bir necha bor oshgan edi. Ammo Sulton Aminovich darsga niroyatda yaxshi baho beradi. Bu Malika Nasirovna uchun katta imtihondan muvaffaqiyatli o‘tgанини bildirardi.

Malika Nasirovna har bir talaba va magistr bilan uzoq subbatlashar, ularga yo‘nalishni tanlashga va oddiy hayotiy masalalarda to‘g‘ri yo‘l tutishlariga ko‘maklashish uchun maslahatlar berardilar. Ish boshlaganda nimalarga e’tibor berish zarurligi, muvaffaqiyat qozonish uchun nima qilish kerak? Ba’zan bir qarashda juda oddiy savollar ham yoshlar uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ular bilar edilar.

Malika Nasirovna ko‘plab talaba va magistrlerga dars berganlar. Ular dan biri Qodirov Moskvada neyrojarroh. Boshqa bir magistr L.M.Lokteva PhD diplomini olib, hozirgi kunda Yaponiyada doktorlik ishi ustida taddiqot olib bormoqda. Yana bir magistri Ilhom Rajabov PhD doktorlik ishi ustida ishlamoqda.

Malika Nasirovnaning turmush o‘rtoqlari ham shifokor bo‘lganlar. Ular shifokorlar oilasi bo‘lgani uchun, mahalla va atrofdagilar uchun “Tez yordam” hisoblanar edi.

Bir kuni ularning qo‘shnilari bo‘lgan er-xotinlar o‘zaro urishib qolib, eri o‘zini osmoqchi bo‘ladi. Malika Nasirovna turmush o‘rtog‘i bilan yugurib chiqib, arqonni yechib, qo‘shnisini qutqarib qolishadi. Bir kuni esa, ishga ketishayotgani da boshqa qo‘shnilarining nafasi yetishmay, og‘ir ahvolga kelganida avval bemor qo‘shnisini shifoxonaga yotqizib, so‘ng ishga borishadi.

Marat Obidovichsiz o‘tkazgan to‘ylari, bolalarning nomzodlik hi-

moyalari, nevara to‘ylarini eslaganda Malika opaning ko‘zlariga armon va quvonch yoshlari qalqadi. Ular turmush o‘rtog‘ini yo‘qotgan yilini hayotidagi eng og‘ir davr deb eslaysidi.

Farzandlarining yutuqlari va nevaralarining tug‘ilishi esa Malika Nasirovna uchun hayotining eng quvonchli kunlaridir.

Malika Nasirovna ilmiy va pedagogik faoliyati davomida 122 ta ilmiy va 44 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, 5 ta monografiya, 1 ta darslik va 6 ta qo‘llanma yaratdi.

2006–2011-yillarda davomida “Bolalarda ichak disbakteriozini samarali davolash usullarini ishlab chiqish” va “Bolalarda emlashdan so‘nggi immunitet tiklanishini baholash va emlashdan keyingi asoratlarning oldini olish va korreksiya qilish usullarini ishlab chiqish” mavzusida 2012–2015 yillarda “1 tip qand kasalligi bilan og‘rigan bolalarda ichak mikrobiotsenoining farmakologik korreksiyasi” mavzusidagi loyihalarga rahbarlik qildi.

Malika Nasirovna “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 15 yil” esdalik nishoni, tibbiyat sohasidagi samarali mehnat, kelajak avlodni tarbiyalash, yetuk va malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashdagi beminnat va fidokorona xizmatlari, tibbiyat ilmi va faniga qo‘shgan salmoqli hissasi uchun, O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi Markaziy kengashining FAXRIY YORLIG‘I, “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash a‘lochisi” ko‘krak nishoni va 1-darajali “Mehnat faxriysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

Ha, Malika Nasirovna o‘z baxtini farzandlarining yutuqlarida, qadrdon kafedrasi, jonajon institutining ravnaqida ko‘radi. Atrofidagi insonlarning eng kichkina yutug‘i va shodligi ham uni benihoya xursand qiladi. U hammani e’zozlaydi. Bu e’zoz va qadr esa yana o‘ziga qaytib keladi.

**Kavsar TURDIYEVA**

## ВРАЧ И ПАЦИЕНТ



*К врачу приходит пациент  
И проклинать судьбу вдруг начал,  
Наверное, он в том момент  
Был не в себе, и чуть не плача*

*Так разговор продолжил свой:  
«Хочу покончить я с собой...  
Меня замучила нужда,  
Устал с ней воевать всегда!»*

*У всех машина, дом, работа...  
Хоть я работаю в три пота,  
Признаться, я своим трудом -  
Не заработал даже дом».*

*А врач: «И нет болезненных симптомов  
Болячек разных, переломов.  
Нет инвалидности у вас!  
Так, что хотите вы от нас?!*

*Судьбу благодарить сумейте,  
И плакать, дружок, не смейте!  
Когда в моменты, счастья так бойко,  
Вы же не несёте кривотолки*

*За всё благодарите Бога,  
После чего, уйдёт тревога.  
Таких, как вы встречал я много,  
И нет конечного итога...*

*Но если мысли изменить,  
И научиться жизнь ценить,  
Исход другой будет у вас!  
В том день вы вспомните про нас...»*

*Больной ушёл, не тратя слов,  
В больницу больше ни ногой,  
А речь врача всё вновь и вновь  
Крутилась в голове дурной.*

*Шли дни, или месяцы и годы,  
О пациенте также нет вестей,  
Подумал врач: «Его невзгоды  
Сломали тяжестью своей,*

*Как жаль», – успел только подумать,  
Как дверь открылась. Пациент  
Вошёл и молвил: «Долго думал,  
Решался, вашу речь крутил  
Вот думал-думал и решил!*

*Отныне я оптимистично  
Смотрю на всё в моей судьбе,  
Упал – несчастье, не критично,  
Встал и пошёл на зло толпе.*

*Такой подход не раз по жизни  
Спасал меня от грустных дум,  
Нет больше суицидных мыслей!  
Так крепко взялся я за ум».*

*Врач улыбнулся с настроением,  
«Благодарю за всё!» он про себя сказал.  
Теперь и набравшись вновь терпения,  
Другого пациента уже он ожидал.*

**Махбубахон ШАВКАТОВА,  
студентка 113-группы  
II Педиатрического факультета**

Kulgu bekati

## UYGA VAZIFA



**Hajviya**

Bugun “O‘zbek tili” fanidan us-tozimiz bir so‘zni kelishiklarda turlab, ulardan tuzilgan gaplardan matn yaratishni vazifa qilib berdilar.

Nimani yozsam ekan deb o‘ylanib o‘tirsam, shu payt onam yonlariga chaqirib goldilar.

– Nega bunday qilasan? “Uka” degani nima ekanligini bilasanmi? Nega uni qarab yurmaysan? Ukangning ko‘ylagiga qara, axir dazmollash qiyin emas-ku! Ukangni daftarining ahvolini ko‘r, nega xatolari buncha ko‘p? Tushinmaganini o‘rgat, axir opasan! Ukingga o‘rnak bo‘lib yurgin.

Men darhol o‘zimni oqlashga o‘tib: “Onajon, axir menda ayb yo‘q. Uning o‘zi yordam so‘ramasa, qanday ish bo‘lsa ham faqat o‘zim-o‘zim deydi. Nima qilishim kerak?” – dedim. Onamni yanada jahllari chiqib: “Ha to‘g‘ri, hamma ayb ukangda. Ukangdan ko‘raverjin, axir sen oppoqsan!”. Shu payt uy ishim yodimga tushib, ketdi. “Onajon, rahmat”, – deb yubordim. “Shu yoshimda uy ishimni qilib berdingiz-a”, – deb, gaplarini takrorladim ularni quchoqlab.

Hali jahlidan tushmagan onam esa teskari burilib: “Bor, o‘qishingga!” – dedilar.

**Nozima XAYITALIYEVA,  
II pediatriya fakulteti  
117-guruhan talabasi**

## O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

*Professor-o‘qituvchilar tarkibi bo‘yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e’lon qiladi:*

**DOTSENTLAR:** Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi; Oilaviy shifokorlik №1; Tibbiy va biologik kimyo; Psixiatriya, narkologiya va bolalar psixiatriysi, tibbiy psixologiya, psixoterapiya.

**KATTA O‘QITUVCHILAR:** Anatomiya; Fiziologiya; Farmakologiya; Tibbiy genetika.

**ASSISTENTLAR:** Yuqumli kasalliklar; Gospital pediatriya 2, xalq tabobati; Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ; Onkologiya, onkogematologiya va radiatsion onkologiya; Umumi yirurgiya; Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni tashkil qilish va boshqarish; Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya; Tibbiy va biologik kimyo, tibbiy biologiya, umumi genetika.

**Tanlov muddati – e’lon chiqqan kundan 1 oy. Manzilgoh: Bog‘ishamol ko‘chasi 223, Tosh PTI.**

**Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekati. 14.11.2022.**

<b>PEDIATR</b>	
SALOMLATIKH – TUMAN BOYLIGI	IZOBORIY VARDI – BOGDOSTOSSIYI
<b>TOSHKENT PEDIATRIYA</b>	
<b>TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT</b>	
JAMOASI NASHRI	
ОРГАН ТРУДОВОГО	
КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО	
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО	
МЕДИЦИНСКОГО ИНСИТИТА	

<b>Tahrir kengashi:</b> D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A. Nosirov, <b>Nashr uchun mas’ul:</b> M.Abduxamidova	<b>Bosh muharrir:</b> B.T. DAMINOV Tahrir hay’ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva <b>(Bosh muharrir o‘rinbosari),</b> A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, H. Abidov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev
---	--

Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro‘yxatga olingan.

Manzil: 700140, Toshkent-140,  
Bog‘ishamol ko‘chasi, 223

“XALQ NASHRIYOTI” XKda chop etildi.  
Manzil: Toshkent sh., Qorasoroy ko‘chasi, 316 uy.  
Tel.: (71) 242-0510; (95) 170-04-02; (99) 040-04-02.  
buyurtma adadi 110 nuxsa, qog‘oz bichimi A3.

Gazeta institut hisobidan nashr etiladi  
va bepul tarqatiladi.